

S.MEXMONOV, I.QO'ZIYEV,
A.OSTONOKULOV, A.KULIBOYEV, A.SUVANKULOV.

BYUDJET HISOBINING XALQARO STANDARTLARI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**S.MEXMONOV, I.QO'ZIYEV, A.OSTONOKULOV, A.KULIBOYEV,
A.SUVANKULOV**

**BYUDJET HISOBINING XALQARO
STANDARTLARI**

Darslik

TOSHKENT-2023

UDK:339.7
KBK:65.268

S.Mexmonov, I.Qo'ziyev, A.Ostonokulov, A. Kuliboyev, A.Suvankulov/ Byudjet hisobining xalqaro standartlari: Darslik; –T.: «Nihol print» OK, 2023. – 176 b.

ISBN 978–9943–9109-9-7

Mazkur darslik Davlat ta'lim standartlari talablari, "Budget hisobining xalqaro standartlari" fanining o'quv dasturiga asosan tuzilgan bo'lib, magistraturaning 5A230903 –«Budget hisobi va nazorati» mutaxassisligi talabalar uchun mo'ljallangan.

Darslikda budget hisobining xalqaro standartlari tarkibi, qo'llanilishi tartibi, maqsadlari hamda talablari alohida mavzu sifatida yoritilgan. Har bir mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar, nazorat savollari va olingan bilimlarni tekshirish uchun nazorat test savollari berilgan.

Darslikdan oliy ta'lim muassasalarining boshqa ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar, o'qituvchilar, stajyor tadqiqotchilar, budget sohasida faoliyat ko'rsatayotgan hisobchilar, shuningdek, bu fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

UDK:339.7
KBK:65.268

Taqrizchilar:

A.Ibragimov – O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi «Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit» kafedrasida professori, i.f.d.;

O.Quljonov – Toshkent moliya instituti «Buxgalteriya hisobi» kafedrasida dotsenti, i.f.n.

ISBN 978–9943–9109-9-7

© S.Mexmonov,
I.Qo'ziyev,
A.Osto-nokulov, A.
Kuliboyev,
A.Suvankulov. 2023
© «Nihol print» OK, 2023

KIRISH

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini davlat sektorida joriy etishning asosiy sabablaridan biri bu umume'tirof etilgan, keng foydalanuvchilar uchun tushunarli bo'lishi mumkin bo'lgan yagona hisobot shakllaridan foydalanish zaruratidir.

Bu, birinchi navbatda, maxsus tayyorlangan ma'lumotlar (masalan, muassasalar bosh tashkilotga uning ko'rsatmasi bo'yicha taqdim etadigan ma'lumotlar yoki budjet hisobotida taqdim etilgan ma'lumotlar) bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lmagan tashqi foydalanuvchilar uchun kerak. Umumiy maqsadli moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga soliq to'lovchilar, qonun chiqaruvchilar, kreditorlar, yetkazib beruvchilar, ommaviy axborot vositalari vakillari va xodimlar kiradi.

Hisobotlarning keng foydalanuvchilar tomonidan o'qilishini ta'minlash zarurati, eng avvalo, davlat daromadlari va xarajatlarining ommaviyligi bilan bog'liq.

Jahon amaliyotida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini ikkita tizimi mavjud:

- xususiy sektor uchun (IAS, IFRS);
- davlat sektori uchun (IPSAS).

Hozirgi vaqtda Respublikamizning davlat sektorida budjet hisobi va hisobotini takomillashtirish budjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Shu nuqtai nazardan budjet hisobining xalqaro standartlari fani bo'yicha tayyorlangan ushbu darslik o'sib kelayotgan yosh avlodga, xususan iqtisodiy yo'nalishlarda ta'lim oluvchi talabalarga budjet ijrosi jarayonida budjet hisobi standartlarini o'rni va ahamiyati, Xalqaro amaliyotda davlat sektori buxgalteriya hisobining metodlari tarkibi, Budjet hisobi standartlari tarkibi va ularning tavsifi, hisoblash va kassa metodlari bo'yicha davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarining maqsadlari va talablari, davlat sektorida hisoblash metodiga asoslangan buxgalteriya hisobini yuritishga o'tish modellari va davlat sektorida hisoblash metodiga asoslangan buxgalteriya hisobini yuritishga o'tish bosqichlari yuzasidan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni hosil qilishga mo'ljallangan.

“Budjet hisobining xalqaro standartlari” fanidan tayyorlangan mazkur darslik magistratura mutaxassisligida o'qitiladigan fanlar bo'yicha yaratilgan Davlat Ta'lim Standartlariga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, “Budjet hisobining xalqaro standartlari” fanidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar olib boruvchi professor – o'qituvchilar va oliy ta'limning magistratura mutaxassisligida ta'lim oluvchi talabalar uchun mo'ljallangan. Mazkur darslik “Budjet hisobining xalqaro standartlari” fan dasturi asosida yozilgan hamda magistraturaning 5A230903 – «Budjet hisobi va nazorati» mutaxassisligi o'quv rejasiga to'liq mos keladi.

I – MAVZU. “BUDJET HISOBINING XALQARO STANDARTLARI” FANINING PREDMETI VA USLUBIY ASOSLARI

1.1. “Budjet hisobining xalqaro standartlari” fanining predmeti

Ma'lumki, budjet tushinchasi keng qo'llaniladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan eng avvalo budjet tushinchasiga aniqlik kiritib olishimiz zarur.

1

Budjet - maqsad uchun mo'ljallangan pul jamg'armasi bo'lib unda daromadlar va xarajatlar manbaalari va yo'nalishlari nazarda tutiladi.

Shu jihatdan oila budjeti, korxonada budjeti, davlat budjeti, davlat jamg'armalari budjeti va boshqalar bo'lishi mumkin.

Hisob – jarayon, hodisalarni miqdor jihatdan tavsiflash sifat jihatdan aks ettirishdir. Hisobni ham bir qancha turlarga ajratish mumkin, ya'ni tezkor hisob, statistik hisobi, buxgalteriya hisobi va boshqalar. Hisobni tashkil etish asosida axborotlar shakllantiriladi. Bu axborotlar jarayonni borishini nazorat qilishga, boshqaruv qarorlarini qabul qilishga, joriy va uzoq muddatli rejalar tuzishga asos bo'lib hizmat qiladi.

Budjet hisobi - Budjet tizimi Budjetlarini ijro etishda hisobga olinadigan, pulda ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning, shuningdek mazkur aktivlar va majburiyatlarni o'zgartiruvchi operatsiyalarning holati to'g'risidagi axborotni to'plash, ro'yxatdan o'tkazish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidir.

Budjet hisobi standarti – budjet hisobini yuritishga belgilangan talablarni aks ettirgan hujjatdir.

Budjet hisobi standarti milliy hamda xalqaro standartlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi” ga muvofiq Budjet hisobini yagona uslubiyoti Budjet hisobining xalqaro standartlariga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

2

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari (DSBHXS) – davlat sektoridagi tashkilotlarda (davlat ishtirokidagi tijorat korxonalaridan tashqari) yuqori sifatda jahon standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish bo'yicha xalqaro miqyosda umumqabul qilingan qoidalardir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib “Budjet hisobining xalqaro standartlari” fani milliy hamda xalqaro standartlarning ahamiyati, maqsadlari, talabalari va tamoyillarini o’rganadi.

3

“Budjet hisobining xalqaro standartlari” fanining asosiy maqsadi – budjet hisobining milliy standartlari hamda xalqaro amaliyotda qo’llaniladigan Davlat sektorida buxgalteriya hisobi halqaro standartlarining o’rni, ahamiyati va ulardan foydalanish bo’yicha yo’nalish profiliga mos bilim, ko’nikma va malaka shakllantirishdir.

4

“Budjet hisobining xalqaro standartlari” fanining predmeti - budjet hisobining milliy standartlari hamda xalqaro amaliyotda qo’llaniladigan Davlat sektorida buxgalteriya hisobi halqaro standartlari bilan bog’liq bo’lgan iqtisodiy munosabatlarni o’rganish.

“Budjet hisobining xalqaro standartlari” fanning vazifasi - uni o’rganuvchilarga Budjet hisobining milliy standartlari tamoyillari, davlat sektorida buxgalteriya hisobini yuritish usullari, budjet hisobining milliy standartlari hamda davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi halqaro standartlarining tarkibi, maqsadi va asosiy talablari hamda ulardan foydalanish bo’yicha nazariy va amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o’rgatishdan iborat.

1.2. Budjet ijrosi jarayonida budjet hisobi standartlarini o’rni va ahamiyati

Budjet ijrosi jarayonida aktivlar va majburiyatlarning, shuningdek, mazkur aktivlar va majburiyatlarni o’zgartiruvchi operatsiyalarning holati to’g’risidagi axborotni to’plash, ro’yxatdan o’tkazish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimi bo’lgan budjet hisobini yuritishga qo’yilgan yagona talab budjet hisobi standartlari belgilaydi.

Jumladan, budjet tashkilotlarida hisob siyosatini shakllantirishga qo’yiladigan talablar, hisob ob’yektlar (asosiy vositalar, zaxiralar va boshqalar)ni tan olish me’zonlari, baholash, hisobotlarda aks ettirish me’yorlarini belgilab beradi.

Budjet hisobi standartlarining bo’limlari quyidagilardan iborat:

- hisob ob’yekti – hisob ob’ektini aniqlash, umumiy tushinchalar;
- hisob ob’yektini tan olish – hisob ob’ektini hisobot elementlariga o’tkazish tartiblari;

– hisob ob'jektini baholash – hisob ob'jektini baholash usullarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar hamda talablar;

– moliyaviy hisobotda aks ettirish – hisob ob'jekti haqida axborotlarni moliyaviy hisobotda ochib berish va aks ettirish tartibi.

Budjet hisobi va hisoboti tizimini tartibga soluvchi davlat organi – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisoblanadi va budjet hisobi standartlarini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi davlat sektorida buxgalteriya hisobi va hisobotini takomillashtirish budjet tizimida amalga oshirilayotgan islohatlarni asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi va kontseptsiya qabul qilindi. Kontseptsiyaga ko'ra budjet hisobi standartlarini qabul qilish belgilandi.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari Xalqaro buxgalterlar uyushmasi tarkibidagi davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari Kengashi tomonidan ishlab chiqiladi. Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari Kengashi a'zolari Xalqaro buxgalterlar uyushmasi tomonidan tayinlanadi. Jami 18 a'zo bo'lib 15 tasi Xalqaro buxgalterlar uyushmasi tomonidan, 3 tasi jamoatchilikdan tavsiya etiladi. Kengashning jamoatchilik a'zolari har qanday shaxsdan yoki tashkilotdan tavsiya etilishi mumkin. Bundan tashqari Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari kengashiga cheklangan miqdorda davlat sektorida moliyaviy hisobotga manfaatdor organlardan kuzatuvchilar tayinlanadi va ular yig'ilishda fikr bildirish huquqiga ega lekin ovoz berish huquqiga ega emas.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari Kengashi tomonidan maslahat guruhi tashkil etiladi va ular ishchi guruh hisoblanib ovoz berish huquqidan foydalanmaydi. Maslahat guruhi rahbari bo'lib Kengash raisi hisoblanadi.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari Kengashi ishlab chiqadi:

hisoblash usulida qo'llaniladigan Davlat sektorida moliyaviy hisobot xalqaro standartlari;

kassa usulida qo'llaniladigan Davlat sektorida moliyaviy hisobot xalqaro standartlari.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari butun jahonda moliyaviy hisobot standartlarining yaqinlashishida, kelishuvida va yanada yaxshilanishida muhim rol o'ynadi. Ulardan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

ko'pchilik mamlakatlarda hisob va hisobotga qo'yiladigan milliy talablar uchun asos bo'lib xizmat qilish;

hisob va hisobotga nisbatan o'z talablarini ishlab chiqayotgan alohida mamlakatlar uchun xalqaro etalon sifatida ishlatilishi;

hisobni yuritishda to'la foydalanish uchun qabul qilish (standartlardan o'zgartirishlarsiz foydalanish).


Davlat sektori buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini mamlakatlarda qo'llash yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlar davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi, axborotlarni shaffofligini oshiradi, budjetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarni yuqori darajada integratsiyalashuvini ta'minlaydi, axborotlarni ishonchligi va to'liqligini oshishi hisobiga davlat aktivlarini samarali boshqarish imkonini beradi, moliyaviy hisobotlarni boshqa

mamlakatlar moliyaviy hisobotlari bilan solishtirish imkoniyati yaratiladi, xalqaro munosabatlarni globallasuvi sharoitida mamlakat majburiyatlari qandayligi va uni o'z resurslari bilan qanday boshqarayotganligi shuningdek moliyaviy holatni tushinish asosida chet el investitsiyalari hajmini oshishi va donorlik mablag'larini ko'payishi imkonini beradi.

1.3. Budget hisobi standartlari tarkibi

O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi va "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq hamda budget hisobini davlat sektorida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari bilan muvofiqlashtirish maqsadida hozir kunda mamlakatimizda 14 ta budget hisobining standarti qabul qilingan.

Ushbu budget hisobi standartlarining tarkibi quyidagi 1.1-rasmda keltirilgan.



1.1-rasm. Budget hisobi standartlarining tarkibi

Mazkur O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standartlari O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi va «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq budget hisobini normativ tartibga solish tizimining elementi hisoblanadi.

1.4. Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari tarkibi

Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari (DSBHXS) davlat sektori institusional birliklari tomonidan ko'pchilik foydalanishi uchun mo'ljallangan yillik moliyaviy hisobotlarni (davlat boshqaruv organlarining individual hisobotlarini yoki davlat boshqaruv organlari bo'yicha umumiy hisobotni) tayyorlashda foydalanish uchun ishlab chiqilgan.

Institusional birlik – bu o'z nomidan aktivlarga ega bo'la oladigan, majburiyatlar qabul qila oladigan, iqtisodiy faoliyat va boshqa tarkiblar bilan operatsiyalarni amalga oshira oladigan sub'yektdir.

Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari xususiy sektor uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida ishlab chiqilgan.

Hozirgacha 43 ta davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari (DSBHXS) qabul qilingan bo'lib, ularning tarkibi quyidagi 1.1-jadvalda ko'rsatilgan.

1.1-jadval

DAVLAT SEKTORI UCHUN BUXGALTERIYA HISOBI XALQARO STANDARTLARI

T/r	Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari (DSBHXS) nomi
1	Moliyaviy hisobotning taqdim etilishi (1 – sonli DSBHXS) (IPSAS 1 – Presentation of Financial Statements)
2	Pul mablag'larining harakati tog'risidagi hisobotlar (2 – sonli DSBHXS) (IPSAS 2 – Cash Flow Statements)
3	Hisob siyosati, hisobdagi baholashda o'zgarishlar va xatolar (3 – sonli DSBHXS) (IPSAS 3 – Accounting Policies, Changes in Accounting Estimates and Errors)
4	Valyuta kurslari o'zgarishlarining ta'siri (4 – sonli DSBHXS) (IPSAS 4 – The Effects of Changes in Foreign Exchange Rates)
5	Qarzlarni bo'yicha sarflar (5 – sonli DSBHXS) (IPSAS 5 – Borrowing Costs)
6	Konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobot (6 – sonli DSBHXS) (IPSAS 6 – Consolidated and Separate Financial Statements)
7	Uyushgan sub'yektlarga investitsiyalar (7 – sonli DSBHXS) (IPSAS 7 – Investments in Associates)
8	Qo'shma faoliyatda ishtirok (8 – sonli DSBHXS) (IPSAS 8 – Interests in Joint Ventures)
9	Ayirboshlash operatsiyalaridan yalpi daromad (9 – sonli DSBHXS) (IPSAS 9 – Revenue from Exchange Transactions)
10	Iqtisodiyoti giperinflyatsiyaga duchor bo'lgan mamlakatlarda moliyaviy hisobot (10 – sonli DSBHXS) (IPSAS 10 – Financial Reporting in Hyperinflationary Economies)


11	Qurilish shartnomalari (11 – sonli DSBHXS) (IPSAS 11 – Construction Contracts)
12	Zahiralar (12 – sonli DSBHXS) (IPSAS 12 – Inventories)
13	Ijara (13 – sonli DSBHXS) (IPSAS 13 – Leases)
14	Hisobot sanasidan keyingi hodisalar (14 – sonli DSBHXS) (IPSAS 14 – Events after the Reporting Date)
15	Moliyaviy vositalar (moliyaviy instrumentlar): axborotni ochib berish va taqdim etish (15 – sonli DSBHXS) (IPSAS 15 – Financial Instruments: Disclosure and Presentation)
16	Investitsiyalangan mulk (16 – sonli DSBHXS) (IPSAS 16 – Investment Property)
17	Asosiy vositalar, inshootlar va jihozlar (17 – sonli DSBHXS) (IPSAS 17 – Property, Plant, and Equipment)
18	Segment bo'yicha hisobot (18 – sonli DSBHXS) (IPSAS 18 – Segment Reporting)
19	Rezervlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar (19 – sonli DSBHXS) (IPSAS 19 – Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets)
20	Aloqador tomonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ochib berish (20 – sonli DSBHXS) (IPSAS 20 – Related Party Disclosures)
21	Pul mablag'larini vujudga keltirmaydigan aktivlarning qadrsizlanishi (21 – sonli DSBHXS) (IPSAS 21 – Impairment of Non-Cash Generated Assets)
22	Davlat boshqaruvi sektori to'g'risidagi moliyaviy ma'lumotlarni ochib berish (22 – sonli DSBHXS) (IPSAS 22 – Disclosure of Financial Information about the General Government Sector)
23	Ayirboshlashga taalluqli bo'lmagan operatsiyalardan yalpi daromad (Soliq va transfertlar) (23 – sonli DSBHXS) (IPSAS 23 – Revenue from Non-Exchange Transactions (Taxes and Transfers))
24	Moliyaviy hisobotda budget ma'lumotlarini taqdim etish (24 – sonli DSBHXS) (IPSAS 24 – Presentation of Budget Information in Financial Statements)
25	Xodimlarni rag'batlantirish (25 – sonli DSBHXS) (IPSAS 25 – Employee Benefits)
26	Aylanma pul mablag'laridagi aktivlarni qadrsizlanishi (26 – sonli DSBHXS) (IPSAS 26 – Impairment of Cash-Generating Assets)
27	Qishloq xo'jaligi (27 – sonli DSBHXS) (IPSAS 27 – Agriculture)
28	Moliyaviy vositalar (moliyaviy instrumentlar): axborotni taqdim etish (28 – sonli DSBHXS) (IPSAS 28 – Financial Instruments: Presentation)
29	Moliyaviy vositalar (moliyaviy instrumentlar): tan olish va baholash (29 – sonli DSBHXS) (IPSAS 29 – Financial Instruments: Recognition and Measurement)
30	Moliyaviy vositalar (moliyaviy instrumentlar): axborotni ochib berish (30 – sonli DSBHXS) (IPSAS 30 – Financial Instruments: Disclosures)
31	Nomoddiy aktivlar (31 – sonli DSBHXS) (IPSAS 31 – Intangible Assets)

32	Xizmat ko'rsatish bo'yicha imtiyozlar: Grant beruvchi (32 – sonli DSBHXS) (IPSAS 32 – Service Concession Arrangements: Grantor)
33	Davlat sektori buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini birinchi marta qabul qilish (33 – sonli DSBHXS) (IPSAS 33 – First-time Adoption of Accrual Basis International Public Sector Accounting Standards (IPSASs))
34	Alohida moliyaviy hisobotlar (34 – sonli DSBHXS) (IPSAS 34 – Separate Financial Statements)
35	Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot (35 – sonli DSBHXS) (IPSAS 35 – Consolidated Financial Statements)
36	Uyushgan va qo'shma korxonalariga investitsiyalar (36 – sonli DSBHXS) (IPSAS 36 – Investments in Associates and Joint Ventures)
37	Qo'shma kelishuvlar (37 – sonli DSBHXS) (IPSAS 37 – Joint Arrangements)
38	Boshqa tashkilotlardagi ulushlarni oshkor qilish (38 – sonli DSBHXS) (IPSAS 38 – Disclosure of Interests in Other Entities)
39	Xodimlarni rag'batlantirish (39 – sonli DSBHXS) (IPSAS 39 – Employee Benefits)
40	Davlat sektori birikmalari (40 – sonli DSBHXS) (IPSAS 40 – Public Sector Combinations)
41	Moliyaviy vositalar (moliyaviy instrumentlar) (41 – sonli DSBHXS) (IPSAS 41 – Financial Instruments)
42	Ijtimoiy imtiyozlar (42 – sonli DSBHXS) (IPSAS 42 – Social Benefits)
43	Ijara (43 – sonli DSBHXS) (IPSAS 43 – Leases)

Yuqorida keltirilgan davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari (DSBHXS) barcha davlat sektori institusional birliklari qo'llashi uchun ishlab chiqilgan.

1.5. Davlat sektorida buxgalteriya hisobini tashkil etish metodlari

Jahon amaliyotida davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining quyidagi metodlari mavjud (1.2-rasm).



1.2-rasm. Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi metodlari

Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining kassa metodi. Mazkur metodda barcha hodisalarni pul mablag'larining harakati bo'yicha qayd qilish ko'zda tutiladi. Bunda aktivlar va majburiyatlarga doir ko'pgina hodisalar buxgalteriya hisobi

doirasida hisobga olinmay qoladi. Mazkur metod sharoitida sotib olingan asosiy vositalar sotib olib kelingandan so'ng bir yo'la xarajatlarga qo'shib yuboriladi.

Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining modifikatsiyalashtirilgan kassa metodi. Mazkur metodda hisobot yili tugagandan so'ng keyingi yilning birinchi oyida sodir bo'lgan va avvalgi hisobot yiliga doir barcha hodisalar tugagan hisobot yiliga tegishli deb qabul qilinadi, bu davr ichida avvalgi hisobot yilida qabul qilingan barcha majburiyatlarni davlat to'lab beradi va davlat budjeti avvalgi hisobot yilida olishi kerak bo'lgan daromadlarini oladi. Bu tartib hisobotlar davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining hisoblash metodi bo'yicha tuzilganda ham saqlanib qoladi. Bu esa qandaydir darajada aktivlar va majburiyatlarni baholash imkonini yaratadi. Mazkur metod sharoitida ham sotib olingan asosiy vositalar sotib olib kelingandan so'ng bir yo'la xarajatlarga qo'shib yuborish tartibi saqlanib qoladi.

Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining hisoblash metodi. Mazkur metodda sodir bo'lgan barcha hodisalar sodir bo'lgan paytda tan olinadi. Bu metod qo'llanilganda asosiy vositalar sotib olib kelingandan so'ng bir yo'la xarajatlarga qo'shib yuborish tartibi amal qilmaydi. Barcha aktivlar qiymati ulardan foydalanish davri davomida ularning xizmat qilish muddatiga mutanosib ravishda eskirish hisoblanib, bu eskirish summasi xarajatlarga amortizatsiya sifatida qo'shib boriladi.

Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining modifikatsiyalashtirilgan hisoblash metodi. Mazkur metodda sodir bo'lgan barcha hodisalar sodir bo'lishi bilan daromadlar daromad deb, xarajatlar xarajat deb hamda ayrim aktivlar va majburiyatlar ham sodir bo'lgan paytda tan olinadi. Mazkur metod sharoitida kassa metodidagi kabi sotib olingan asosiy vositalar sotib olib kelingandan so'ng bir yo'la xarajatlarga qo'shib yuborish tartibi saqlanib qoladi. Bu esa hisobni osonlashtirish imkonini beradi hamda davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining hisoblash metodiga o'tishni ancha osonlashtiradi.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, davlat sektorida kassa metodiga asoslangan buxgalteriya hisobi yuritilganda sodir bo'lgan hodisalar bo'yicha pul mablag'larining kelib tushishi yoki pul mablag'larining to'lanishi paytida tan olinsa, davlat sektorida hisoblash metodiga asoslangan buxgalteriya hisobi yuritilganda esa sodir bo'lgan hodisalar aktivlarning qiymati va majburiyatlarning summasi paydo bo'lgan yoki ularning iqtisodiy qiymati o'zgargan paytda tan olinadi.

Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining hisoblash metodida aktivlarning sof qiymatini ko'paytiruvchi hodisalar daromadlar deb, aktivlarning sof qiymatini kamaytiruvchi hodisalar esa xarajatlar deb tan olinadi.

Davlat boshqaruv sektorining aktivlari sof qiymati hamda ular faoliyatining natijalari bo'lib davlat boshqaruv sektorining aktivlari qiymati bilan majburiyatlari summasi o'rtasidagi farq hisoblanadi.

1.6. Hisoblash metodi bo'yicha davlat sektorida buxgalteriya hisobini yuritishning talablari

Hisoblash metodi – buxgalteriya hisobida sodir bo'lgan barcha operatsiyalar va boshqa hodisalar, ular sodir bo'lgan paytda qayd etiladigan (pul mablag'lari va uning ekvivalenti kelib tushgan yoki to'lanishidan oldin) buxgalteriya hisobi metodi.

Hisoblash metodi moliyaviy hisobotlar ular oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarishi uchun hisoblash usuli bo'yicha tuzilishi kerak. Bu usulga binoan, voqea va hodisalar ular ro'yobga chiqarilishi bilan oq tan olinishi (pul to'langani yoki olinganida emas) va moliyaviy hisobotda ular amalga oshirilgan davrda aks ettirilishi kerak. Hisoblash tamoyiliga binoan tuzilgan hisobot nafaqat o'tgan voqea hodisalar, balki tashkilotning uzishi kerak bo'lgan majburiyatlari, olishi kerak bo'lgan iqtisodiy resurslari haqida ma'lumotlar beradi. Shunday qilib, foydalanuvchilar iqtisodiy qarorlar qabul qilishi uchun muhim axborotni taqdim etish imkoniyati paydo bo'ladi.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini mamlakatlarda qo'llash yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlar davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi, axborotlarni shaffofligini oshiradi, budjetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarni yuqori darajada integratsiyalashuvini ta'minlaydi, axborotlarni ishonchliligi va to'liqligini oshishi hisobiga davlat aktivlarini samarali boshqarish imkonini beradi, moliyaviy hisobotlarni boshqa mamlakatlar moliyaviy hisobotlari bilan solishtirish imkoniyati yaratiladi, xalqaro munosabatlarni globallasuvi sharoitida mamlakat majburiyatlari qandayligi va uni o'z resurslari bilan qanday boshqarayotganligi, shuningdek, moliyaviy holatni tushunish asosida chet el investitsiyalarini hajmini oshishi va donorlik mablag'larini ko'payishi imkonini beradi.

Hisoblash usulidagi davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari hisoblash (moliyaviy hisobotlar ular oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarishi uchun hisoblash usuli bo'yicha tuzilishi kerak) hamda faoliyatni uzluksizligi (moliyaviy hisobot odatda tashkilot faoliyat ko'rsatyapti va operatsion faoliyatini bundan keyin ham davom ettiradi degan taxmin asosida tuziladi) tamoyillariga asoslangan.

1.7. Davlat sektorida hisoblash metodiga asoslangan buxgalteriya hisobini yuritishga o'tish modellari va bosqichlari

Davlat sektorida hisoblash metodiga asoslangan buxgalteriya hisobini yuritishga o'tishning bevosita (katta shok) va bilvosida (bosqichma – bosqich) metodlari mavjud.

Mamlakatimizda budjet hisobini isloh etishda Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini qo'llashni ikkinchi yondashuvi belgilandi. Bunda

hisoblash usuliga bosqichma-bosqich (oraliq variantlari asosida) o'tish yo'li belgilandi.

Ushbu bosqichda davlat sektorida hisob va hisobot kassa usulida hisoblash usuli elementlaridan foydalangan holda yuritiladi. Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini mamlakatlarda qo'llash yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlar davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi, axborotlarni shaffoqligini oshiradi, budjetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarni yuqori darajada integratsiyalashuvini ta'minlaydi, axborotlarni ishonchligi va to'liqligini oshishi hisobiga davlat aktivlarini samarali boshqarish imkonini beradi, moliyaviy hisobotlarni boshqa mamlakatlar moliyaviy hisobotlari bilan solishtirish imkoniyati yaratiladi, xalqaro munosabatlarni globallasuvi sharoitida mamlakat majburiyatlari qandayligi va uni o'z resurslari bilan qanday boshqarayotganligi, shuningdek, moliyaviy holatni tushunish asosida chet el investitsiyalarini hajmini oshishi va donorlik mablag'larini ko'payishi imkonini beradi.

Hisoblash usulidagi Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari hisoblash (moliyaviy hisobotlar ular oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarishi uchun hisoblash usuli bo'yicha tuzilishi kerak) hamda faoliyatni uzluksizligi (moliyaviy hisobot odatda tashkilot faoliyat ko'rsatyapti va operatsion faoliyatini bundan keyin ham davom ettiradi degan taxmin asosida tuziladi) tamoyillariga asoslangan.

Xalqaro amaliyotda Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini qo'llash quyidagi ikki yondashuvda amalga oshirilmoqda:

1. Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini to'g'ridan to'g'ri qabul qilish, bunda xalqaro standartlardan o'zgarishsiz foydalanish.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini to'g'ridan to'g'ri qabul qilgan mamlakatlar: Braziliya, Litva, Turkiya, Vetnam, Mongoliya, Slovakiya, Ispaniya, Peru, Fillipin, Keniya, Ruminiya, Shveytsariya, Kosta – Rika, Avstriya va Janubiy Afrika.

Bu mamlakatlar Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini qonunchilik tartibida foydalanish uchun qabul qilingan. Bu tartibda qabul qilinishi o'z navbatida xalqaro standartlar bo'yicha mutaxassislardan bilim va ko'nikma bo'lishi talab etiladi. Bundan tashqari ushbu standartlarni rasmiy davlat tilidagi tarjimai bo'lishi kerak.

2. Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari asosida milliy hisob va hisobot tizimini shakllantirish.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari asosida ichki standart qabul qilgan mamlakatlar: Avstraliya, Latviya, Finlandiya, Buyuk britaniya, Yangi Zellandiya, Frantsiya, Kanada, Singapur, Chili, Kolumbiya, AQSh va Shvetsiya. Bu mamlakatlarda Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari talablari asosida milliy hisob standartlari shakllantirilgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan mamlakatlar ichida O'zbekistonni davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari asosida ichki standartlarini qabul qilayotgan mamlakatlar safiga qo'shish mumkin.

O'zbekistonda davlat sektorida buxgalteriya hisobini isloh etish bosqichma-bosqich yondashuvi asosida xalqaro darajada umumqabul qilingan normalarga muvofiqlashtirilmoqda.

1.8. Mamlakat budjet ijrosi buxgalteriya hisobini takomillashtirishda davlat sektori buxgalteriya hisobi xalqaro standartlaridan foydalanish

Mamlakatimizda budjet hisobini isloh etishda Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini qo'llashni ikkinchi yondashuvi belgilandi. Bunda **hisoblash usuliga** bosqichma-bosqich (oraliq variantlari asosida) o'tish yo'li belgilandi.

Ushbu bosqichda davlat sektorida hisob va hisobot kassa usulida hisoblash usuli elementlaridan foydalangan holda yuritiladi:

Moliya (g'aznachilik) organlari – kassa usulida

Budjet tashkilotlari – hisoblash usulida

Bunda:

1. Amaldagi budjet hisobini kassa usulida yuritish usulini saqlagan holda bosqichma – bosqich davlat sektori buxgalteriya hisobida islohatlarni amalga oshirish;

2. Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlaridagi hisoblash usuliga asosan budjet hisobi standartlarini qabul qilish asosida budjet tashkilotlarida moliyaviy hisob va hisobotni, shuningdek davlat aktivlari va majburiyatlari hisobi, davlat maqsadli jamg'armalari hisobini takomillashtirish nazarda tutiladi.

Budjet hisobini isloh etishning keyingi bosqichlarida Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari hisobi, shuningdek, Davlat maqsadli jamg'armalari hisobini kassa usulidagi Davlat sektori moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga va shu asosda davlat sektori hisobi va hisoboti tizimini hisoblash usulidagi Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga moslash amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan islohatlar budjet hisobi standartlarini qabul qilish asosida amalga oshirilishi belgilandi. Shuni qayd etish kerakki 2014 yil 1 yanvardan amalga kiritilgan "Budjet kodeksi"da budjet hisobi va hisobotini yuritish uslubiyoti budjet hisobining standartlariga muvofiq belgilanishi alohida ko'rsatib o'tilgan.

Bugungi kunda Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirish kontseptsiyasiga muvofiq budjet hisobining standartlari loyihalari ishlab chiqilmoqda hamda tegishli soha mutaxassislari ishtirokida muhokamalardan o'tkazilmoqda.

Hozirgi kunda budjet hisobi standartlarini qabul qilinishi:

- buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha milliy qonunchilik talablarini e'tiborga olish;

- ortiqcha xarajatlarsiz buxgalteriya va moliya xodimlarini tayyorlash, o'qitishni tashkil etish;

- amaldagi avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturini (UzASBO) ba'zi kichik o'zgartish va qo'shimchalar bilan foydalanish;

- yangi o'zgarishlar jarayonini tashkil etishni osonlashtirish imkonini beradi.

Xalqaro amaliyotda davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini qo'llash ikki yondashuvda amalga oshirilmoqda ya'ni;

- Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartini to'g'ridan to'g'ri qabul qilish bunda xalqaro standartlardan o'zgarishsiz foydalanish;

- Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari asosida milliy hisob va hisobot tizimini shakllantirish.

Nazorat uchun savollar

1. Budget hisobining xalqaro standartlari fanining predmeti nima?
2. Budget hisobining xalqaro standartlari fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. Budget hisobining xalqaro standartlari qanday bo'limlardan tashkil topadi?
4. Budget ijrosi jarayonida budget hisobi standartlarining o'rni va ahamiyati nimalardan iborat?
5. Budget hisobini yuritishga belgilangan minimal talablarni aks ettirgan hujjat nima deb nomlanadi?
6. Budget hisobi xalqaro standartlarining tarkibi nimalardan iborat?
7. Budget hisobining xalqaro standartlari fani qaysi fanlar bilan o'zaro bog'liq?
8. Budget hisobi xalqaro standartlarining alohida xususiyatlarini tushuntirib bering?
9. Budget hisobining xalqaro standartlari axborot foydalanuvchilarini aytib bering.
10. Budget hisobi xalqaro standartlarining me'yoriy-huquqiy asoslarini aytib bering.

2 – MAVZU. DAVLAT SEKTORI BUXGALTYERIYA HISOBI METODLARI


2.1. Xalqaro amaliyotda Davlat sektori buxgalteriya hisobining metodlari tarkibi

Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining kassa metodi, modifikatsiyalashtirilgan kassa metodi, modifikatsiyalashtirilgan hisoblash metodi va hisoblash metodi mavjud bo'lib, bu metodlar haqida ushbu darslikning 1.5 – paragrafidan ma'lumot berib o'tganmiz.

Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi metodlarining o'ziga xos jihatlari haqida qisqacha quyidagilarni ma'lum qilamiz.


Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining hisoblash (H) usulida operatsiyalar va barcha hodisalar (daromadlar, xarajatlar, majburiyatlar) ular sodir bo'lgan paytda (pul mablag'lari harakatiga bog'liq bo'lmagan holda) tan olinadi.

Hisoblash usulining afzalligi quyidagi 2.1 – rasm orqali ifodalangan.



2.1 – rasm. Hisoblash usulining afzalliklari

Hisoblash usulining kamchiligi quyidagi 2.2 – rasm orqali ifodalangan.



2.2 – rasm. Hisoblash usulining kamchiliklari

Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining kassa (K) usulida operatsiyalar va barcha hodisalar (daromadlar, xarajatlar) pul mablag'lari harakatiga

bog'liq bo'lgan holda qayd qilinadi yoki tan olinadi. Amaliyotda qisman mamlakatlar kassa usulida (sof holda) hisobni yuritadi.

Modifikatsiyalashgan kassa usulida nafaqat pul mablag'lari harakati bo'yicha operatsiyalarni ro'yxatga oladi balki qo'shimcha aktivlar va majburiyatlarni ro'yxatga olish uchun qo'shimcha schyotlar yuritiladi.

Modifikatsiyalashgan hisoblash usulida hisoblash usulidagi barcha qoidalar saqlanib qoladi Bunda qabul qilingan asosiy vositalar qiymati bir yo'la xarajatda aks ettiriladi.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida **modifikatsiyalashgan kassa usuli** yoki **modifikatsiyalashgan hisoblash usuli (MKH)** qo'llaniladi.

Xalqaro amaliyotda Davlat sektori buxgalteriya hisobining metodlaridan quyidagi tartibda foydalanmoqda (2.1-jadval).

2.1-jadval

Xalqaro amaliyotda hisob usullarini qo'llash to'g'risida ma'lumot


Mamlakatlar nomi	G'aznachilikda davlat budjeti ijrosi	Budjet ijrosiga ma'sul moliya organlarida	Budjet tashkilotlarida smetalar ijrosi bo'yicha	Boshqa sub'yektlarda
Albaniya	MKH	MKH	MKH	H
Xorvatiya	K	MKH	MKH	MKH
Gruziya	K	K	H	H
Rossiya	K	K	H	H
Bosniya va Gertsegovina	MKH	MKH	MKH	MKH
Turkiya	MKH	MKH	MKH	MKH
O'zbekiston	K	K	H	H

2.2. Davlat sektori buxgalteriya hisobining kassa metodi

Kassa usulida operatsiyalar va barcha hodisalar (daromadlar, xarajatlar) pul mablag'lari harakatiga bog'liq bo'lgan holda qayd qilinadi yoki tan olinadi. Amaliyotda qisman mamlakatlar kassa usulida (sof holda) hisobni yuritadilar.


Hisob amaliyotida kassa usulini qo'llanilishini ham o'ziga xos afzalliklari hamda kamchiliklari mavjud.

Kassa usulida hisobni yuritishning afzalligi quyidagi 2.3 – rasm orqali ifodalangan.



2.3 – rasm. Kassa usulida hisobni yuritishning afzalliklari

Kassa usulida hisobni yuritishning kamchiligi quyidagi 2.4 – rasm orqali ifodalangan.



2.4 – rasm. Kassa usulida hisobni yuritishning kamchiliklari

Kassa usuliga asoslangan moliyaviy hisobot tarkibi:

1. Pul tushumlari va to'lovlari haqidagi hisobot:

- ❖ hamma tushumlar tegishli tartibda klassifikatsiyalangan holda;
- ❖ hamma to'lovlar tegishli tartibda klassifikatsiyalangan holda
- ❖ pul mablag'larini boshlang'ich va oxirgi qoldig'i.

2. Hisob siyosati va tushuntirish xati.

Mamlakatimizda davlat budjetining va davlat maqsali jamg'armalari budjetlarining budjeti ijrosi bo'yicha budjet hisobi kassa usulida yuritilishi belgilangan.

2.3. Davlat sektori buxgalteriya hisobining modifikatsiyalashgan kassa metodi

Buxgalteriya hisobining modifikatsiyalashtirilgan kassa metodi haqida 1.5-paragrafda bto'liq ma'lumot berilgan.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobini modifikatsiyalashtirilgan kassa metodida yuritadigan mamlakatlar:


Albaniya,
Bosniya va Gertsegovina,
Turkiya.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida modifikatsiyalashgan kassa usuli yoki modifikatsiyalashgan hisoblash usuli qo'llaniladi (MKH).

Modifikatsiyalashgan kassa usulida nafaqat pul mablag'lari harakati bo'yicha operatsiyalarni ro'yxatga oladi balki qo'shimcha aktivlar va majburiyatlarni ro'yxatga olish uchun qo'shimcha schyotlar yuritiladi.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari hodisalar va operatsiyalarni moliyaviy hisobotda aks ettirish talablari (tan olish, baholash, axborotlarni ochib berish, axborotlarni taqdim etish)ni belgilaydi.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari quyidagi maqsadlarda foydalaniladi (2.5-rasm).



2.5-rasm. Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlaridan foydalanish maqsadlari

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini mamlakatlarda qo'llash yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlar davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi, axborotlarni shaffofligini oshiradi, byudjetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarni yuqori darajada integratsiyalashuvini ta'minlaydi, axborotlarni ishonchliligi va to'liqligini oshishi hisobiga davlat aktivlarini samarali boshqarish imkonini beradi, moliyaviy hisobotlarni boshqa mamlakatlar moliyaviy hisobotlari bilan solishtirish imkoniyati yaratiladi, xalqaro munosabatlarni globallasuvi sharoitida mamlakat majburiyatlari qandayligi va uni o'z resurslari bilan qanday boshqarayotganligi, shuningdek, moliyaviy holatni

tushunish asosida chet el investitsiyalarini hajmini oshishi va donorlik mablag'larini ko'payishi imkonini beradi.

2.4. Davlat sektori buxgalteriya hisobining hisoblash metodi va unda xarajat va daromadlarni tan olish.

Hisoblash usulida operatsiyalar va barcha hodisalar (daromadlar, xarajatlar, majburiyatlar) ular sodir bo'lgan paytda (pul mablag'lari harakatiga bog'liq bo'lmagan holda) tan olinadi.

Hisob amaliyotida hisoblash usulini qo'llanilishi qator ijobiy jihatlarni ko'rsatib o'tish va o'z o'rnida ma'lum nomuvofiqliklarni ham e'tirof etish mumkin.

Xorijiy olimlar Kristensen va Parker budget buxgalteriya hisobini hisobini hisoblash usuliga o'tishi isloh etishning aniqlovchi elementi sifatida e'tirof etishgan. Hisoblash usuli ilk marotaba 1993 yilda Yangi Zelandiya va Avstraliyada joriy qilingan.

Buyuk Britaniya va Yangi Zelandiya davlat sektori moliyaviy menejmentini isloh etish jarayonida hisoblash usulidan foydalanishni qiyosiy tahlili olimlar Sheyla Ellvud va Syuzan Nyuberrilar tomonidan amalga oshirilgan. Ular hisoblash usulini qo'llash iqtisodiyotni turli sektorlarida moliyaviy hisobotni o'qish va taqqoslash imkonini berishini asoslashgan.

Hisoblash usulidagi Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari hisoblash (moliyaviy hisobotlar ular oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarishi uchun hisoblash usuli bo'yicha tuzilishi kerak) hamda faoliyatni uzluksizligi (moliyaviy hisobot odatda tashkilot faoliyat ko'rsatyapti va operatsion faoliyatini bundan keyin ham davom ettiradi degan tahmin asosida tuziladi) tamoyillariga asoslangan.

Nazorat uchun savollar:

1. Xalqaro amaliyotda davlat sektori buxgalteriya hisobining metodlari tarkibi nimalardan iborat?
2. Davlat sektori buxgalteriya hisobining hisoblash metodini tushuntirib bering?
3. Davlat sektori buxgalteriya hisobining kassa metodini tushuntirib bering?
4. Davlat sektori buxgalteriya hisobining modifikatsiyalashtirilgan kassa metodini tushuntirib bering?
5. Davlat sektori buxgalteriya hisobining modifikatsiyalashtirilgan hisoblash metodini tushuntirib bering?
6. Davlat sektori buxgalteriya hisobining modifikatsiyalashtirilgan kassa metodi va modifikatsiyalashtirilgan hisoblash metodining farqli jihatlari nimalardan iborat?
7. Mamlakatimizda davlat budgetining va davlat maqsali jamg'armalari budgetlarining budgeti ijrosi bo'yicha budget hisobi qaysi usulda yuritilishi belgilangan?

8. Kassa usulida hisobni yuritishning afzalliklarini tushuntirib bering?
9. Kassa usulida hisobni yuritishning kamchiliklarini izohlang.
10. Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari qaysi maqsadlarda foydalaniladi?
11. Davlat sektorida buxgalteriya hisobini modifikatsiyalashtirilgan kassa metodida yuritadigan mamlakatlarni aytib bering.
12. Kassa usuliga asoslangan moliyaviy hisobot tarkibini aytib bering.

3 – MAVZU. BUDJET HISOBI STANDARTLARI TARKIBI

3.1. Budget hisobi standartlari tarkibi va ularning tavsifi

Budget hisobi va budget hisobotining yagona uslubiyati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan Budget kodeksi, budget hisobining standartlariga, shuningdek boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Budget kodeksiga muvofiq Budget hisobining standartlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Yuqoridagi 1.3 – paragrafda budget hisobi standartlarining tarkibini 1.1 – rasmda ko'rsatib o'tganmiz.

Hozirgi kunda Budget hisobi standartlarini qabul qilinishi:

- buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha milliy qonunchilik talablarini e'tiborga olish;

- ortiqcha xarajatlarsiz buxgalteriya va moliya xodimlarini tayyorlash, o'qitishni tashkil etish;

- amaldagi avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturini (UzASBO) ba'zi kichik o'zgartirish va qo'shimchalar bilan foydalanish;


- yangi o'zgarishlar jarayonini tashkil etishni osonlashtirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda budget hisobining 14 ta standarti O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lib, ular haqida quyidagilarni ma'lum qilamiz.

«Hisob siyosati» (1-sonli BHS)

Ushbu Standart O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksiga muvofiq budget hisobini normativ tartibga solish tizimining elementi hisoblanadi hamda budget hisobining boshqa standartlari bilan birgalikda qo'llaniladi.

Mazkur Standart quyidagi boblarni o'z ichiga oladi (3.1-rasm).



3.1-rasm. 1-sonli budget hisobi standarti “Hisob siyosati”ning tarkibiy tuzilishi

Mazkur Standartning maqsadi hisob siyosatini tanlash va o'zgartirishlar kiritish mezonlarini, shuningdek budget tashkilotlari tomonidan budget hisobini va moliyaviy

hisobotni tuzish, hisob siyosatidagi o'zgarishlar to'g'risidagi axborotni ochib berish tartibini belgilab berishdan iborat.


Ushbu Standart budget tashkilotlarining moliyaviy hisobotlariga bo'lgan ishonchlilik darajasini va ma'lum bir davriylikdagi moliyaviy hisobotlarini, shuningdek boshqa budget tashkilotlarining moliyaviy hisobotlarini o'zaro solishtirish darajasini oshirishga mo'ljallangan.

Hisob siyosati budget tashkilotlari tomonidan budget to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida mavjud o'zaro bir-birini istisno etuvchi bir nechta hisob yuritish usullaridan birini tanlash maqsadida tuziladi.

"Hisob siyosati" nomli 1 – sonli BHS budget tashkilotlarida hisob siyosatini tanlash va qo'llash, hisob siyosatiga o'zgarishlarning hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobotlarni tuzishda barcha budget tashkilotlari tomonidan qo'llaniladi.

Hisob siyosati rahbar yoki uning o'rinbosarining buyrug'i yoki qarori bilan tasdiqlanadi va yildan-yilga izchil qo'llaniladi.

Budget tashkilotlarida hisob siyosatini tuzishda quyidagi 3.2 – rasmda ko'rsatilgan hisob siyosatining prinsiplariga asoslaniladi.



3.2 – rasm. Hisob siyosatining prinsiplari

Budget tashkiloti hisob siyosatini, hisob siyosatining o'zgarish xususiyatini, ishonchli va talab etiladigan axborotni olish imkonini beradigan yangi hisob siyosatini qo'llash sabablarini, hisobotda aks ettirilgan joriy davr uchun va har bir oldingi davr uchun moliyaviy hisobotning o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan qismini har bir moddalar qatoriga kiritilgan tuzatishlar summasini amalda imkoni boricha ochib berishi lozim.

«Yagona schyotlar rejasini» (2-sonli BHS)

Ushbu Standart O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi va "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq budget hisobini normativ tartibga solish tizimining elementi hisoblanadi hamda g'aznachilik bo'linmalari, moliya organlari, davlat va boshqa maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlari, barcha budget tashkilotlariga tatbiq etiladi.

Mazkur Standart quyidagi bo'limlar va boblarni o'z ichiga oladi (3.1 – jadval).

3.1 – jadval

2-sonli budget hisobi standarti "Yagona schyotlar rejasini" ning tuzilishi

Bo'lim t/r	Bo'lim nomi	Bob t/r	Bob nomi	Paragraf t/r	Paragraf nomi
I	Budget hisobida yagona schyotlar rejasini qo'llash sohasi	1	<i>Umumiy qoidalar</i>	–	–
		2	<i>Qo'llash yo'nalishlari</i>	–	–
II	O'zbekiston Respublikasining budget tizimi budjetlarining va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalarning budget hisobida yagona schyotlar rejasini qo'llash tartibi	1	<i>Budjet tizimi budjetlarining va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalarning budget hisobida yagona schyotlar rejasini qo'llash tartibi</i>	1	Joriy aktivlar
				2	Uzoq muddatli aktivlar schyotlari
				3	Joriy majburiyatlar schyotlari
				4	Uzoq muddatli majburiyatlar
				5	Hisoblangan daromadlar
				6	O'zaro hisob-kitoblar bo'yicha olingan va berilgan mablag'lar
				7	Hisoblangan xarajatlar (moliyaviy majburiyat)
				8	Moliyaviy natijalar
III	Budget tashkilotlarining budget hisobida yagona schyotlar rejasini qo'llash tartibi	1	<i>Joriy aktivlar</i>	1	Pul mablag'lari
				2	Debitor qarzlari
				3	Tovar-moddiy zaxiralar
		2	<i>Uzoq muddatli aktivlar</i>	1	Uzoq muddatli debitor qarzlari
				2	Nomoliyaviy aktivlar
		3	<i>Joriy majburiyatlar</i>	1	Kreditor qarzlari
		4	<i>Uzoq muddatli majburiyatlar</i>	1	Kreditor qarzlari
		5	<i>Daromadlar</i>	–	–

		6	<i>O'zaro hisob-kitoblar bo'yicha olingan va berilgan mablag'lar</i>	-	-
		7	<i>Haqiqiy xarajatlar</i>	-	-
		8	<i>Kapital va moliyaviy natijalar</i>	1	Kapital
				2	Boshqa realizatsiya va xarajatlar
				3	Budjet tashkilotlarining joriy yilga yakuniy moliyaviy natijalari
		9	<i>Balansdan tashqari schyotlar</i>	-	-

Yagona schyotlar rejasi moliyaviy hisobot elementlariga muvofiq guruhlashtirilgan aktivlar, majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar, kapital va moliyaviy natijani o'zida ichiga oladi.

Yagona schyotlar rejasi uning tarkibiy qismi bo'lgan schyotlarga va subschyotlarga ajratiladi.

Tarkibiy schyotlar tegishli subschyotlarga bo'linmasa, ushbu tarkibiy schyot subschyot sifatida foydalaniladi.

G'aznachilik bo'linmalari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi budjetlarining va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalarining hamda budjet tashkilotlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining budjet hisobi "Yagona schyotlar rejasi" ga muvofiq yuritadi.

G'aznachilik bo'linmalari, moliya organlari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar mazkur Standartda keltirilgan O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi budjetlari va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalarining budjet hisobida yagona schyotlar rejasini qo'llash tartibiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi budjetlarining va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalarining budjet hisobini yuritadi.

Budjet tashkilotlari mazkur Standartda keltirilgan Budjet tashkilotlarining budjet hisobida yagona schyotlar rejasini qo'llash tartibiga muvofiq budjet hisobini tashkil etadi.

Budjet tizimi budjetlarining va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalarning budjet hisobida yagona schyotlar rejasini qo'llash mazkur bob hamda ushbu Standartning "O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi budjetlarining va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalarning budjet hisobida yagona schyotlar rejasini qo'llash bo'yicha namunaviy o'tkazmalar" asosida amalga oshiriladi.

«Budjet hisoboti» (3-sonli BHS)

Ushbu budjet hisobining standarti O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi

Qonuniga muvofiq budget tashkilotlari, davlat maqsadli jamg'armalari va budget mablag'lari oluvchilarning budget hisobotini tuzish va taqdim qilish tartibini belgilaydi.

Standart tashkilotlar tomonidan *hisoblash metodi* bo'yicha choraklik va yillik budget hisobotlarini tuzish va taqdim qilishda qo'llaniladi.

Standart talablari budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilar tomonidan tuziladigan va taqdim etiladigan soliq va statistika hisobotlariga tatbiq etilmaydi.

Mazkur Standart quyidagi bo'limlar va boblarni o'z ichiga oladi (3.3 – rasm).

Budget hisoboti quyidagi hisobot turlarini o'z ichiga oladi:

➤ budget tashkilotlarining va budget mablag'lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlari;

➤ davlat budgetiga, davlat maqsadli jamg'armalari budgetlariga daromadlarning tushumlari to'g'risidagi hisobot;

➤ davlat budgetining ijrosi to'g'risidagi hisobot;

➤ davlat maqsadli jamg'armalari budgetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobot.


Qonunchilik hujjatlari talablarini buzmaganda holda moliyaviy hisobotlar ko'rsatkichlari salbiy qoldiqqa ega bo'lsa, u holda hisobotlarda ushbu ko'rsatkichlar "minus" belgi bilan aks ettiriladi.

Moliyaviy hisobotlarda keltiriladigan axborotlar foydalanuvchilar uchun tushunarli va sodda bo'lishi lozim.

Moliyaviy hisobotda axborotning ochib berilmasligi yoki noto'g'ri ko'rsatilishi sababli foydalanuvchilar qabul qiladigan iqtisodiy qarorlarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan axborot muhim hisoblanadi.

Belgilangan muddatlarda moliyaviy hisobotlar foydalanuvchilarga taqdim etilmaganda o'z foydalilik xususiyatini kamaytiradi.

Tugallanganlik ta'minlash uchun moliyaviy hisobotlardagi axborot to'liq bo'lishi kerak.



3.3 – rasm. 3 – sonli budget hisobi standarti “Budget hisoboti” ning tarkibiy tuzilishi

Foydalanuvchilar hisobotlarni qiyoslash imkoniyatiga ega bo'lishi uchun moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda asos bo'lgan standartlar, ularga kiritilgan o'zgartirishlar haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.

Foydalanuvchilar tashkilotning turli davrlardagi moliyaviy ahvolini qiyoslash imkoniyatiga ega bo'lishi uchun moliyaviy hisobotda o'tgan davr uchun kerakli ko'rsatkichlar keltirib o'tilishi lozim.


«Valyuta kursi o'zgarishining ta'siri» (4 – sonli BHS)

“Valyuta kursi o'zgarishining ta'siri” nomli O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (4 – sonli BHS) O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi va “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq moliya organlari, g'aznachilik bo'linmalari, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar hamda budget tashkilotlarida chet el valyutasida operatsiyalarni yuritishni normativ tartibga solinishini belgilaydi. Ushbu Standart budget hisobining boshqa standartlari bilan birgalikda qo'llaniladi.

Standartning maqsadi chet el valyutasida ifodalangan aktiv va majburiyatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish hamda uning ma'lumotlarini moliyaviy hisobotlarda ochib berish tartibini belgilash hisoblanadi.

Standart O'zbekiston Respublikasi hududidagi tashkilotlar va tashkilotning xorijdagi tarkibiy bo'linmalarida chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun tatbiq etiladi.

Mazkur Standartning tarkibiy tuzilishi quyidagi 3.4 – rasmda ko'rsatilgan.



3.4 – rasm. 4 – sonli budget hisobi standarti “Valyuta kursi o'zgarishining ta'siri” ning tarkibiy tuzilishi

O'zbekiston Respublikasi hududidagi tashkilotlar budget hisobini milliy valyuta – so'mda yuritadi va moliyaviy hisobotlarni taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi budget tashkilotlari budget hisobini milliy valyuta – so'mda va xorijiy valyutada yuritadi, moliyaviy hisobotlarni esa milliy valyuta – so'mda taqdim etishlari lozim.

Tashkilotlar chet el valyutasini qayta baholashda ijobiy kurs farqini balansning moliyaviy natijalar bo'limidagi kurs farqidan foyda subschyotiga, aksincha chet el valyutasini qayta baholashda salbiy kurs farqi balansning moliyaviy natijalar bo'limidagi kurs farqidan zarar subschyotida aks ettiriladi.

Tashkilotlar Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomalar bilan tasdiqlangan 308-son shakldagi “Bosh jurnal kitobi”ning tegishli subschyotlarida hosil bo'lgan kurs farqini (ijobiy va salbiy) yil davomida jamg'arib boradi hamda yil oxirida tashkilotning yakuniy moliyaviy natijasi hisobidan chiqariladi

Moliyaviy hisobot va unga doir tushuntirishlarda quyidagilar ochib beriladi:

- a) chet el valyutasidagi kurs farqidan ko'rilgan foyda yoki zararlar;
- b) hisobot davri boshlanish va so'nggi kunidagi rasmiy kurslar o'rtasidagi farqlar;
- v) tashkilot moliyaviy natijalarida aks ettirilgan kurs farqlari;
- g) moliyaviy hisobot tuzishda hisobot sanasidagi rasmiy kursi.

**Chet el valyutasida ayrim operatsiyalarni amalga oshirish muddatlar
RO'YXATI**

Chet el valyutasidagi operatsiyalar	Chet el valyutasidagi operatsiya amalga oshirilgan sana
Chet el valyutasidagi shaxsiy g'azna yoki bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar	Chet el valyutasidagi pul mablag'larining shaxsiy g'azna yoki bankdagi hisobvaraqlarga kelib tushish yoki ularni bank hisobvaraqlaridagi hisobdan chiqarish sanasi
Chet el valyutasidagi kassa operatsiyalari	Chet el valyutasini kassaga kirim qilish yoki ularni kassadan berish sanasi
Chet el valyutasidagi daromadlar	Chet el valyutasidagi daromadlarni hisobga olish sanasi
Chet el valyutasidagi xarajatlar	Chet el valyutasidagi xarajatlarni hisobga olish sanasi
Tovar-moddiy zaxiralari va boshqa aktivlarni baholash	Tovar-moddiy zaxiralari va boshqa aktivlarning xarid qilinganligini tasdiqlovchi boshlang'ich hisob hujjatlari (tovarning kuzatuv hujjatlari yoki bojxona yuk deklaratsiyasi) mavjud bo'lganda, ularni buxgalteriya hisobiga qabul qilish sanasi
Hisobdorlar bo'yicha chet el valyutasidagi xodimlarga qarzlarni aks ettirish	Bo'nak hisobotini tasdiqlash sanasi
Chet el valyutasidagi qarzlarni so'ndirish	Chet el valyutasidagi qarzlarni to'lash sanasi

«Qishloq xo'jaligi» (5-sonli BHS)

O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (5-sonli BHS) "Qishloq xo'jaligi" O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq budget tashkilotlari, davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa budgetdan tashqari jamg'armalarining qishloq xo'jaligi faoliyati hisobini yuritish tartibini belgilaydi.

Qishloq xo'jaligi faoliyati turli sohalarni qamrab oladi, jumladan chorvachilik, o'rmonchilik, qishloq xo'jaligining bir yillik yoki ko'p yillik o'simliklarini o'stirish.


Hisoblash metodi orqali moliyaviy hisobotni tuzuvchi va taqdim qiluvchi tashkilotlar o'zining qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan holatlarda mazkur Standartni qo'llashi va quyidagilarning hisobini yuritishi kerak:

a) biologik aktivlar;

b) yig'ish paytidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobini yuritishda ularni olish (yig'ish) vaqtidagina mazkur Standartdan foydalaniladi. Uning keyingi hisobini yuritishda boshqa tegishli standartlar qo'llaniladi.

Mazkur Standartning tarkibiy tuzilishi quyidagi 3.5 – rasmda ko'rsatilgan.



3.5 – rasm. 5 – sonli budjet hisobi standarti “Qishloq xo‘jaligi” ning tarkibiy tuzilishi

Tashkilot biologik aktiv yoki qishloq xo‘jaligi mahsulotini faqat quyidagi hollarda hisobga oladi:

- a) mahsulot yetishtirilgunga (yig‘ilgunga) qadar davrda aktivni nazorat qilsa;
- b) aktiv bilan bog‘liq kelajakda iqtisodiy daromad kelishi yoki xizmat ko‘rsatish imkoniyatini ehtimolligi yuqori bo‘lsa;
- v) aktivning haqiqiy qiymati yoki tannarxini o‘lchash ma‘lumotlari ishonchli bo‘lsa.

Biologik aktivning haqiqiy qiymati uning joylashgan joyi va hozirgi vaqtdagi holatidan kelib chiqib aniqlanadi. Misol uchun, ho‘jalikdagi beg‘araz yoki nominal qiymatda berish uchun mo‘ljallangan qoramolni joyga yetkazib berishning transport va boshqa xarajatlarini hisoblamaganda, uning haqiqiy qiymati tegishli bozordagi narxi hisoblanadi.

Biologik aktivlar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va ularni qayta ishlab chiqish natijasida olinadigan (yig‘iladigan) mahsulotlarga misollar quyidagi 3.3 –jadvalda keltirilgan.

3.3 – jadval

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, biologik aktivlar va ularni qayta ishlash natijasida olinadigan (yig‘iladigan) mahsulotlarga MISOLLAR

Biologik aktivlar	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Qayta ishlash natijasida olinadigan mahsulotlar
Qo‘ylar	Jun	Ip kalava, gilam
O‘rmondagi daraxtlar	Kesilgan daraxtlar	Yog‘och-taxta materiallari
G‘alla ekini	Bug‘doy	Un va un mahsulotlari
Sog‘in sigir	Sut	Pishloq
Paxta o‘simligi	Terilgan paxta	Ip-tola, kiyim
Shakar qamish	O‘rilgan shakar qamish	Shakar
Olma daraxti	Olma	Olma sharbati
Uzumzor	Uzum	Vino
Go‘sht yo‘nalishidagi qoramollar	Go‘sht	Kolbasa mahsulotlari
Meva daraxtlar	Yig‘ilgan mevalar	Qayta ishlovdan o‘tgan mevalar

Tashkilotlar biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini dastlabki hisobga olish, shuningdek biologik aktivlarning sotish xarajatlaridan tashqari haqiqiy qiymatining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan foyda yoki zararining umumiy qiymatini ochib berishi kerak.

Tashkilot iste'mol qilinadigan biologik aktivlar bilan hosil beruvchi (unumdor) biologik aktivlar, shuningdek sotish uchun mo'ljallangan biologik aktivlar bilan beg'araz yoki nominal qiymat asosida berishga mo'ljallangan biologik aktivlar o'rtasidagi farqlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ochib berishi kerak.

Axborotni berishda tashkilotlar biologik aktivlarni yetilgan va yetilmagan biologik aktivlarga ajratadi.

Tashkilot, agar u taqdim etilgan moliyaviy hisobot bilan birga ochib berilmagan bo'lsa, quyidagi ma'lumotlarni ochib berishi kerak:

a) biologik aktivlarning har bir guruhlari bilan bog'liq bo'lgan o'zining faoliyatining xususiyati bo'yicha;

b) natural ko'rinishda ifodalangan nomoliyaviy aktivlar parametrlari yoki hisob-kitob ko'rsatkichlari:

hisobot davri yakuniga tashkilotlar biologik aktivlarining har bir guruhlari bo'yicha;

hisobot davrida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi bo'yicha.

Tashkilotlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari har bir guruhining olish (yig'ish) vaqtida va biologik aktivlari har bir guruhining haqiqiy qiymatini aniqlashda foydalaniladigan usul hamda asosiy yo'nalishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ochib berishi kerak.

Hisobot davrida olingan (yig'ilgan) qishloq xo'jaligi mahsulotiga nisbatan tashkilot shu mahsulotning olish (yig'ish) vaqtida aniqlanadigan sotish xarajatlarini chegirgan holda haqiqiy qiymatini ko'rsatishi kerak.

«Ijara» (6 - sonli BHS)

Ushbu budjet hisobining standarti "Ijara" (6 – sonli BHS) O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 – yil 8 – apreldagi 102 – son "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq budjet tashkilotlari, davlat maqsadli va budjetdan tashqari boshqa jamg'armalarning ijara hisobini yuritish tartibini belgilaydi.

Standart maqsadlariga ko'ra ijara quyidagilarga ajratiladi:

a) moliyaviy ijara;

b) operativ ijara.

Moliyaviy ijara – mol-mulkni (moliyaviy ijara obyektini) egalik qilish va foydalanishga o'n ikki oydan ortiq muddatga shartnoma bo'yicha topshirishda vujudga keladigan ijara munosabatlaridir.

Operativ ijara – moliyaviy ijara shartnomasi hisoblanmaydigan mulkiy ijara shartnomasiga binoan aktivni vaqtinchalik egalik qilishga va foydalanishga yoki foydalanishga berish.


Hisoblash metodi asosida moliyaviy hisobotlarni tuzuvchi va taqdim qiluvchi balansda saqlovchilar barcha ijara turlari hisobini yuritishda mazkur Standartdan foydalanadi.

Standartda quyidagilar qo'llanilmaydi:

tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, jumladan neft, tabiiy gaz va shu kabi qayta tiklanmaydigan resurslarni qidiruv va foydalanish bo'yicha ijara shartnomalari;

kinofilm, videoyozuv, pyesa, qo'lyozma, patent va avtorlik huquqlari kabi obyektlar bo'yicha litsenziya kelishuvlar hisobini yuritish.

Mazkur Standartning tarkibiy tuzilishi quyidagi 3.6 – rasmda ko'rsatilgan.



3.6 – rasm. 6 – sonli budjet hisobi standarti “Ijara” ning tarkibiy tuzilishi

Standart aktivlarni ijaraga berish natijasida yuzaga keladigan foyda yoki zararlarni budjet hisobida aks ettirilishini belgilaydi.

Moliyaviy ijarada barcha xatar va foydalar ijarachida bo'ladi. Ijarachining debitor qarzdorliklari sifatida to'lanayotgan pul mablag'larini uning asosiy qarzini qoplash sifatida, ko'rsatilgan xizmatlar uchun kompensatsiya va rag'batlantirishni moliyaviy daromad sifatida hisobga olinadi.

Operativ ijarada, aktivga egalik qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha xatarlar ijarachida bo'lmaydi. Operativ ijara shartnomasi bo'yicha olingan aktivlar ijarachining balansida hisobga olinmaydi.

Operativ ijara obyekti ijarachi tomonidan balansdan tashqari hisoblarda – operativ ijara shartnomasida ko'rsatilgan qiymatda, balansda saqlovchida – asosiy vositalar tarkibida balans hisoblarida hisobga olinadi.

Moliyaviy ijara orqali realizatsiya qilingan aktivni qayta ijaraga olishni hisoblash tartibi ijara tasnifiga bog'liq hisoblanadi. Agar aktivni qayta ijaraga olish moliyaviy ijaraga olib kelsa, realizatsiya qilingan summaning balans qiymatidan ortiq bo'lgan miqdori ijarachi uchun daromad sifatida hisobga olinmaydi. Bu holatlar keyingi davrlarga o'tkaziladi va ijara muddati davomida hisobga olinadi.

Operativ ijarada qayta ijaraga olingan aktivning qiymati uning balans qiymatidan past bo'lsa, bu farq zarar sifatida hisobga olinadi.

Ijarachi mol-mulkni soz holatda saqlaydi, o'z hisobidan joriy ta'mirlash va mulkni saqlash bo'yicha xarajatlarni qoplaydi.

Balansda saqlovchi operativ ijara bo'yicha quyidagi axborotlarni ochib berishi kerak:

a) muddatidan oldin bekor qilish huquqsiz bo'lgan operativ ijara bo'yicha kelgusidagi minimal ijara to'lovlarini umumiy hamda har biri uchun alohida quyidagi davrlar uchun:

bir yilgacha bo'lgan muddatda;

bir yildan so'ng, lekin, besh yildan kam bo'lmagan muddat;

besh yildan keyingi muddat;

b) moliyaviy faoliyat hisobotida, daromad sifatida hisobga olingan shartli ijara to'lov summasi;

v) balansda saqlovchi tomonidan tuzilgan ijara shartnomalarining umumiy tavsiflari.

Ijarachilar moliyaviy ijara bo'yicha quyidagi axborotlarni ochib berishi kerak:

hisobot davridagi har bir aktivning turi bo'yicha sof balans qiymati;

hisobot davridagi xarajat sifatida tan olingan shartli ijara to'lovi;

muddatidan oldin bekor qilish huquqiga ega bo'lmagan ijara shartnomalari bo'yicha balans kunida qabul qilinadigan ijaraning kelgusidagi minimal ijara to'lovlari umumiy summasi;

moliyaviy hisobotni tuzish sanasiga ijaradan olinishi kutilayotgan kelgusi ijara to'lovlari summasi to'g'risidagi ma'lumotlar;

moliyaviy ijara muddati uchun qoplanmagan majburiyat qoldig'iga davriy foiz stavkasini olish uchun balansda saqlovchining daromadi (moliyaviy ijara bo'yicha foizlar)ni taqsimlashda foydalaniladigan usul;

ijarachi tomonidan tuzilgan, shartli ijara to'lovi bo'yicha kreditorlik qarzdorligining aniqlanish asosi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi, biroq bu bilan chegaralanmagan ijara shartnomalari umumiy mazmuni.

«Tovar-moddiy zaxiralar» (7-sonli BHS)

Mazkur "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli budjet hisobining standarti (7-sonli BHS) O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi va "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq budjet tashkilotlari, davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalarining tovar-moddiy zaxiralari hisobini yuritish tartibini belgilaydi.

Mazkur Standartning tarkibiy tuzilishi quyidagi 3.7 – rasmda ko'rsatilgan.

Davlat maqsadli jamg'armalarining ijrosi to'g'risida oylik hisobot

T/r	Budget tasnifi kodlari			Ko'rsatkichlar	Yil boshidan*			Hisobot davridagi ijro
					Tasdiqlangan reja	Aniqlangan reja	Ijro	
				Davr boshidagi qoldiq				
				Jami daromadlar jumladan				
				Daromadlarning nomlanishi				
				Jami xarajatlar				
				Xarajatlar nomi				
				Davr oxiridagi qoldiq				

Izoh: * — Yil boshidan o'sib boruvchi tartibda aks ettiriladi.

Rahbar

Bosh hisobchi

(imzo)

(imzo)

M.O'.

20__ yil "____" _____

MUNDARIJA

	Kirish.....	
	1– Mavzu. “BUDJET HISOBINING XALQARO STANDARTLARI” FANINING PREDMETI VA USLUBIY ASOSLARI	
1.1.	“Budjet hisobining xalqaro standartlari” fanining predmeti.....	
1.2.	Budjet ijrosi jarayonida budjet hisobi standartlarini oʻrni va ahamiyati.....	
1.3.	Budjet hisobi standartlari tarkibi.....	
1.4.	Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari tarkibi.....	
1.5.	Davlat sektorida buxgalteriya hisobini tashkil etish metodlari.....	
1.6.	Hisoblash metodi boʻyicha davlat sektorida buxgalteriya hisobini yuritishning talablari.....	
1.7.	Davlat sektorida hisoblash metodiga asoslangan buxgalteriya hisobini yuritishga oʻtish modellari va bosqichlari.....	
1.8.	Mamlakat budjet ijrosi buxgalteriya hisobini takomillashtirishda davlat sektori buxgalteriya hisobi xalqaro standartlaridan foydalanish.....	
	2 – Mavzu. DAVLAT SEKTORI BUXGALTYERIYA HISOBI METODLARI	
2.1.	Xalqaro amaliyotda davlat sektori buxgalteriya hisobining metodlari tarkibi.....	
2.2.	Davlat sektori buxgalteriya hisobining kassa metodi.....	
2.3.	Davlat sektori buxgalteriya hisobining modifikatsiyalashtirilgan kassa metodi.....	
2.4.	Davlat sektori buxgalteriya hisobining hisoblash metodi va unda xarajat va daromadlarni tan olish	
	3 – Mavzu. BUDJET HISOBI STANDARTLARI TARKIBI	
3.1.	Budjet hisobi standartlari tarkibi va ularning tavsifi	
3.2.	Davlat sektori buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini hisoblash metodiga asoslanligi	
3.3.	Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarida belgilangan talablar	
3.4.	Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarni qoʻllanilishi tartibi	
	4 – Mavzu. HISOBLASH METODI BOʻYICHA DAVLAT SEKTORI UCHUN BUXGALTYERIYA HISOBI XALQARO STANDART- LARINING MAQSADLARI VA TALABLARI	
4.1.	“Moliyaviy hisobotni taqdim etilishi”, “Pul mablagʻlari harakati toʻgʻrisida hisobotlar”, “Hisob siyosati, hisobdagi baholashda	

	o'zgartirishlar va xatolar", "Valyuta kurslari o'zgarishlarining ta'siri" xalqaro standartlarning maqsadlari va talabalari	
4.2.	"Yig'ma va alohida (qo'shimcha) moliyaviy hisobot", "Hisobot sanasidan keyin sodir bo'lgan hodisalar", "Asosiy vositalar", " Davlat boshqaruv sektori to'g'risidagi moliyaviy malumotlarni ochib berish", "Moliyaviy hisobotda budget ma'lumotlarini taqdim etish" xalqaro standartlarning maqsadlari va talabalari	
4.3.	"Qarzlarni bo'yicha sarflar", "Uyushgan sub'ektlarga investitsiyalar" va boshqa Davlat sektori buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini maqsadlari va talabalari	
5 – Mavzu. KASSA METODI BO'YICHA BUXGALTERIYA HISOBIDA MOLIYAVIY HISOBOT. DAVLAT SEKTORI UCHUN BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTNING MAQSADLARI VA TALABLARI		
5.1.	Kassa metodi bo'yicha buxgalteriya hisobida moliyaviy hisobot Davlat sektori buxgalteriya hisobi xalqaro standartning maqsadi	
5.2.	Kassa metodi bo'yicha buxgalteriya hisobida moliyaviy hisobot Davlat sektori buxgalteriya hisobi xalqaro standarti talablari asosida hisobot tuzish	
5.3.	Kassa metodi bo'yicha buxgalteriya hisobida moliyaviy hisobot Davlat sektori buxgalteriya hisobi xalqaro standarti asosida pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot taqdim etish	
5.4.	Yig'ma moliyaviy hisobotlar tayyorlash	
6 – Mavzu. DAVLAT SEKTORIDA HISOBLASH METODIGA ASOSLANGAN BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHGA O'TISH MODELLARI		
6.1.	Xalqaro amaliyotda Davlat sektorida hisoblash metodiga asoslangan buxgalteriya hisobini yuritishga o'tishning modellari	
6.2.	Davlat sektorida hisoblash metodiga asoslangan buxgalteriya hisobini yuritishga o'tishning "Katta shok" modeli	
6.3.	Davlat sektorida hisoblash metodiga asoslangan buxgalteriya hisobini yuritishga o'tishning "Bosqichma-bosqich" modeli	
7 – Mavzu. DAVLAT SEKTORIDA HISOBLASH METODIGA ASOSLANGAN BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHGA O'TISH BOSQICHLARI		
7.1.	Davlat sektorida kassa metodiga asoslangan buxgalteriya hisobini yuritishdan hisoblash metodiga asoslangan buxgalteriya hisobini yuritishga o'tish bosqichlari	
7.2.	Davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimini qo'llashdan oldin olib boriladigan tayyorgarlik ishlari	
7.3.	Xalqaro buxgalterlar uyushmasi tarkibida Davlat sektorida moliyaviy	

	hisobot xalqaro standartlari Kengashi tuzilishi	
7.4.	Davlat sektorida buxgalteriya hisobi Xalqaro Standartlarini ishlab chiqish va unga izohlar	
7.5.	Davlat sektorida buxgalteriya hisobi Xalqaro Standartlaridan foydalanish imkoniyatlari va ko'lami	
7.6.	Davlat sektorida hisoblash metodiga asoslangan buxgalteriya hisobini yuritishga o'tish bo'yicha xorij tajribalari	
7.7.	Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini qo'llash	
	Mavzularga oid test savollari	
	Glossariy	
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	
	Ilovalar	